Ahmedov. A. Yu.
Fargona davlat universtiteti o‘qituvchisi
Oxunova. S. T.
Pedagogika yo‘nalishi talabasi

PEDAGOGIK FAOLIYATDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Anostatsiya *Mazkur maqolada pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning psixologik jihatlari chuqur tahlil qilingan. Unda o‘qituvchining muloqot jarayonidagi hissiy barqarorligi, shaxslararo aloqani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish qobiliyati hamda o‘quvchilarga individual yondashuvning ahamiyati yoritiladi.*

Kalit sozlar:*Pedagogik faoliyat, kommunikativ kompetentlik, psixologik omillar, empatiya, o‘zini boshqarish, motivatsiya, pedagogik-psixologik munosabatlari.*

Аннотация: *В данной статье глубоко проанализированы психологические аспекты коммуникативной компетентности в педагогической деятельности. Освещаются эмоциональная устойчивость преподавателя в процессе общения, способность правильно налаживать межличностные связи, а также значение индивидуального подхода к учащимся.*

Ключевые слова: *Педагогическая деятельность, коммуникативная компетентность, психологические факторы, эмпатия, саморегуляция, мотивация, педагогико-психологические отношения*

Abstract: *This article provides an in-depth analysis of the psychological aspects of communicative competence in pedagogical practice. It highlights the teacher’s emotional stability during communication, the ability to establish effective interpersonal relationships, and the importance of an individualized approach to students.*

Keywords: *Pedagogical activity, communicative competence, psychological factors, empathy, self-regulation, motivation, pedagogical-psychological relationships.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilardan nafaqat puxta bilim va pedagogik mahorat, balki yuqori darajadagi kommunikativ kompetentlik ham talab etiladi. Chunki pedagogik faoliyatining asosini o‘quvchi bilan samarali muloqot, o‘zaro tushunish va ijobiy psixologik muhitni yaratish tashkil etadi. Kommunikativ kompetentlik o‘qituvchining o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq va ta’sirchan ifoda etishi, o‘quvchilarning ruhiy holatini sezish hamda ularning ehtiyojiga mos yondashish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim jarayonida psixologik yondashuvning o‘rni beqiyosdir. O‘qituvchi o‘z emotsiyalarini boshqara olgan holda, o‘quvchilarda ishonch, motivatsiya va faollikni shakllantiradi. Shunday

ekan, pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning psixologik asoslarini o‘rganish o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ana shu kompetentlikni shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar, ularni rivojlantirish yo‘llari va amaliy ahamiyati tahlil etiladi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqot ta’limning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydigan eng muhim omillardan biri kommunikativ kompetentlikning psixologik asoslari hisoblanadi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik – o‘qituvchining o‘z fikrini to‘g‘ri ifoda etish, o‘quvchini tinglay bilish, tushunish va uni ruhiy holatiga mos yondashish qobiliyatini anglatadi. Kommunikativ kompetentlikning psixologik asoslari esa o‘qituvchining emotsional barqarorligi, empatiyasi, sabr-toqati, stressni boshqarish va o‘zini anglash darajasi bilan bog‘liqdir.Fikrlash psixologiyasi nutqai nazardan muammoli o‘qitish g‘oyasi va prinsplari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okan, I.Ya.Lerner kabi psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. S.L.Rubishteynning “Tafakkur – muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oyasi muammoli o‘qitishning psixologik asosi sifatida qabul qilingan. Shuningdek, nisbatan to‘liq va aniq ta’rif M.I.Maxmudov tomonidan berilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari, tahlil, umumlashtirish hisobga olingan o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va o‘quvchilarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarning tizimi sifatida izohlanadi.

O‘qituvchiga nisbatan o‘smirlarning talab va umidlari chet el psixologlari tomonidan tadbiq qilingan bo‘lib, A.Djersildning izlanishlariga binoan bolalar quyida qayd etilgan xarakterga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni afzal hisoblashar ekan:

- ☑ mehribon, quvnoq, javobgarlikni his qiluvchi, barqaror insoniy sifatlari;
- ☑ haqiqatgo‘y, batartib, halol, boshqalarni hurmat korsatadigan, tashkilotchilik sifatidagi;
- ☑ boshqalarni manfaatini o‘ylaydigan, xalqparvar, sinf ishlarida o‘quvchilarga erkinlik huquqini beruvchi, qiziquvchan, ishtiyoqli va ishchan;
- ☑ yoqimli ovozli, umumiy yoqimtoylik qiyofasidagi o‘qituvchi.

Rossiya psixologlaridan N.V.Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, O‘zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davlatshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o‘qituvchilik kasbi va ta’lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan.

Psixologning kasbiy kommunikativ kompetentligini oliy o‘quv yurtida yoki amaliyotchi psixologlarni qayta tayyorlash kurslarida rivojlantirish ularning kelajakdagi amaliy faoliyatini samarali olib borishlari uchun sharoit yaratadi va bu quyidagi uch yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1- yo‘nalish – bu psixologlarning ixtisoslashtirilgan markazlarida maslahat ishlarini olib borilishi, mijozlar bilan muloqotga kirishishlari uchun zarur bo‘lgan kasbiy-kommunikativ kompetentligi.

2- yo‘nalish – amaliyotchi psixologlar yoki ta’lim muassasalari (maktab, kasb-hunar

kollejlari, akademik litseylari, oliy o‘quv yurtlari) psixolog o‘qituvchilari faoliyati. Bu jarayonda psixologning kasbiy kommunikativ kompetentligi o‘quvchilar bilan samarali muloqot olib borishlari, ularni psixologik ma’rifat va psixologik bilimlarga ega bo‘lishlarini ta’minlash uchun muhimdir.

3- yo‘nalish – amaliyotchi psixologning rahbarlar, tashkilot, korxona, muassasa xodimlari bilan ishlashda, ularga psixologik xizmat ko‘rsatishda va maslahat berishda, jamoada sog‘lom ijtimoiy-psixologik iqlimni ta’minlash, qadrlarni tanlov asosida qabul qilish, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy muloqot psixologiyasi sohasidagi va mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muammolari bo‘yicha quyidagi vazifalar aniq belgilanishi lozimpsixologning kasbiy-kommunikativ kompetentligi, shuningdek, uning amaliy talqinga tegishli bo‘lgan tushunchalar tizimini ishlab chiqish va asoslab berish;

☑ “psixologiya” va , “amaliy psixologiya” mutaxxasisligi bo‘yicha ta’lim oluvchilarning kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta’limning innovatsion usullari va shakllari, psixologik treninglarni ishlab chiqish va aprobatsiyadan o‘tkazish;

☑ “kasbiy muloqot psixologiyasi”, “Psixologning kasbiy-kommunikativ kompetentligi” maxsus kurslari, ta’lim olayotgan psixologlar uchun o‘quv uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish;

☑ psixologning kasbiy-kommunikativ kompetentligining rivojlanishi va uning amaliyotda qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning kasbiy muhim bo‘lgan kommunikativ malaka, ko‘nikma va sifatlarni aniqlash;

☑ ta’lim tizimidagi psixologlarning, shuningdek, OO‘YUlari, pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi samaradorligini oshirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va xok.

Taniqli rus olimi A.A.Leontyevning fikricha kommunikativ kompetentlik shaxsning “nutqiy faoliyatini ijtimoiy-psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish qobiliyatidir”. Unga ko‘ra, o‘qituvchi nafaqat ma’lumot yetkazuvchi, balki psixologik jihatdan o‘quvchi bilan emotsional aloqa o‘rnatuvchi shaxs hamdir.Bundan tashqari, V.A.Kan-Kalik esa o‘qituvchining kommunikativ tayyorgarligini “pedagogik muloqot san’ati” deb ataydi. Uningcha, dars jarayonidagi muvaffaqiyat o‘qituvchining o‘quvchi bilan psixologik yaqinlik va ishonchli aloqa o‘rnatish darajasiga bog‘liq. O‘zbekistonlik tatqiqotchilar J.Mashrabjonov va Z.Dadajonova o‘z ishlarida bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligi pedagogik madaniyat bilan bevosita bog‘laydi. Ularning fikricha, kommunikativ madaniyat pedagogik madaniyatning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, o‘qituvchi shaxsining kasbiy barkamolligi belgilaydi. Psixologik nuqtai nazardan, kommunikativ kompetentlikning shakllanishi shaxsning emotsional intellekti, o‘zini anglash, muloqotdagi moslashuvchanlik va boshqalarni tushuna olish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Shaxsning o‘z his-tuygularini boshqara olishi, ijobiy muloqot muhitini yaratish qobiliyati o‘quvchining psixologik tayyorgarligini aks ettiradi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning psixologik asoslari – bu o‘qituvchining nutq madaniyati, empatiyasi, tinglay bilish mahorati, o‘zini anglash qobiliyati hamda o‘quvchi psixologiyasini tushunishga asoslangan

ko‘nikmalardir. Ushbu kompetensiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, ijobiy o‘quv muhiti yaratadi va o‘qituvchi shaxsining kasbiy yetukligiga olib keladi.

Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi asosiy me’zonlardan biridir. Bugungi globallashuv va ta’lim tizimining modernizatsiyalashuvi jarayonida o‘qituvchining bilim berishdagi yondashuvi, o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatish madaniyati va psixologik moslashuvchanligi ta’lim sifati va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham kommunikativ kompetentlikni chuqur psixologik asosida shakllantirish o‘qituvchining kasbiy barkamolligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining kommunikativ kompetentligi faqat nutq madaniyati yoki muloqot texnikasiga emas, balki shaxsning emotsional barqarorligi, empatiya darajasi, o‘zini anglash qobiliyati, stressga bardoshliligi va o‘quvchilarni psixologik jihatdan tushuna olish salohiyatiga ham tayanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faqat bilim manbai emas, balki ijtimoiy-psixologik jarayonlarni boshqaruvchi, o‘quvchilarning hissiy holatini nazorat qiluvchi, ularni ruhlantiruvchi va ijobiy psixologik muhit yaratuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Kommunikativ kompetentlikning psixologik asoslarini rivojlantirish o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy o‘sishini ta’minlaydi, ta’lim jarayonida o‘zaro ishonch, hurmat va emotsional barqarorlik muhitini yaratadi. Natijada o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon etish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, o‘qituvchi esa dars jarayonini boshqarishda yuqori samaradorlikka erishadi.

Shuningdek, pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning psixologik asoslarini organish va amaliyotda qollash – zamonaviy ta’lim sifatini oshirish, oqituvchi shaxsining kasbiy yetukligini mustahkamlash va oquvchi bilan ozaro insoniy, ijobiy aloqalarni rivojlantirishning eng muhim shartidir. Shu bois har bir pedagog o‘zining psixologik tayyorgarligini, muloqot madaniyatini, tinglash va tushunish ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borishi lozim. Faqat shundagina ta’lim tizimida samarali, ruhiy jihatdan sog‘lom va insoniy qadriyatlarga tayanadigan muhitni yaratish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. N.M.O‘rinova, M.R.Kadirova, B.B.Djalolov, B.X.Baydjanov “Pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanma Farg‘ona 2022 76-77-bet.
2. F.Irnazarovich, M.Eshmurodova “Bo‘lgusi psixologlar kasbiy kommunikativ kompetentligini psixologik xususiyatlari” Tashkent 2021. 166-167-bet.
3. T.G.Ergashevna “Bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalarni ta’lim-tarbiyaviy yarayonga qo‘llashning psixologik-pedagogik asoslari” Termiz-2023 11-bet
4. Sh.H.Baxtiyorovna “Pedagogik faoliyatning psixologik asoslari” Navoiy viloyati Xatirchi tumani 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi 2023.100-bet